QO‘QON XONLIGIDA MARKAZIY BOSHQARUV APPARATINING FAOLIYATI VA UNING TAKOMILLASHUVI

Abduazimov Davronbek Baxtiyor o‘g‘li
Guliston davlat universiteti 3-bosqich talabasi
davron2801@mail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda O‘zbek davlatchiligi tarixida davlat boshqaruvi organlarining tashkil etilishi, faoliyati va takomillashuvida Qo‘qon xonligi boshqaruv tizimining o‘rni haqida gap boradi. Tezisda mahalliy muarrixlarning tarixiy faktlarga asoslangan asarlaridan ma’lumotlar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *“Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin”, Abdukarimbiy, Olimxon, “Tarixi Turkiston”, Olimxon, Umarxon, Xudoyorxon, Oyimchaxon, Туркестанские ведомости, Rajab , Muhammad Sharif, qo‘shbegi otaliq, Sulton Murodbek*

KIRISH

O‘zbekiston tarixida davlat boshqaruvi organlarining tashkil topishi va faoliyati, asosan, an’anaviylik, vorisiylik va uzluksizlik asosida tashkil etilgan. Xonlikda tashkil etilgan saroy va devon tarkibidagi mansab va unvonlar nomlanish nuqtai nazaridan o‘zgargan bo‘lsada, vazifa va lavozim yo‘riqnomasiga ko‘ra eski shaklidan farq qilmagan.

Mustaqillik yillarida davlat boshqaruvida milliy davlatchilik asoslarini yaratish, demokratlashtirish borasida salmoqli ishlar olib borildi. Xususan, hududlarda mahalliy davlat hokimiyati organlarini shakllantirish hamda ularning kelajagi bo‘yicha tarixiy tajriba asosida tizim shakllantirildi. Umuman olganda respublikamizda mahalliy hokimiyat tizimi munosabatlarining o‘ziga xosligi shundan iboratki, davlat boshqaruvining mexanizmi mahalliy hokimiyat organlari bilan uzviy bog‘liq va shu organlar orqali amalga oshiriladi.

Shunday ekan, tarixiy tajriba asosida O‘zbekiston tarixining o‘rta asrlar davridagi davlatchilik tarixiga murojaat qiladigan bo‘lsak, o‘zbeklarning ming qabilasi (urug‘i) boshliqlaridan biri Shohruhbiy asos solgan Qo‘qon xonligidagi davlat boshqaruv tizimi o‘rta asrlarda Movarounnahrda hukm surgan musulmon davlatlari boshqaruv tizimidan farq qilmaganligiga guvoh bo‘lamiz. Zamonaviy tadqiqotlarda ham xonlikda Buxoro amirligida bo‘lgani kabi Amir Temur davrida shakllangan hamda shayboniylar davrida qisman isloh qilingan davlat boshqaruvi va tizimi mavjud bo‘lganligi, xonlikda eng oliy va markaziy unvon xon unvoni bo‘lib, uning hukumati cheklanmaganligi ta’kidlab

o‘tilgan. Farmon berish va uning bajarilishini nazorat etish salohiyatlari xonning qo‘lida edi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

XIX asr manbalarida Qo‘qon xonligi beklik, ba’zan viloyag va sarkorlik sifatida tilga olingan ma’muriy - xududiy qismlarga bo‘lingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbalar (A. Kun) Qo‘qon xonligidagi 15 ta beklikning nomini keltiradi. Bular: Qo‘qon va uning atrofi, Marg‘ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So‘x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobo darxon[2]. “Туркестанские ведомости” to‘plamida esa Asaka, Marg‘ilon, Baliqchi O‘sh, So‘x, Koson va O‘zgan sarkorlik sifatida ham tilga olinadi[3].

Bunday vaziyat Qo‘qon xonligi boshqaruviga ham xos edi. “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin” asarida Abdukarimbiy huzurida kengash mavjud bo‘lganl. Bu kengashda umaro va fuzalolar pinhoniy maslahat qilishgan va muayyan masalalar yuzasidan qaror chiqarganlar.

Fuqarolarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, davlatning salohiyatini ko‘tarib, har jihatdan taraqqiy ettirish, xorijiy yoki qo‘shni mamlakatlar bilan iqtisodiy va siyosiy diplomatik munosabatlar o‘rnatish davlatchilikning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Hukmdorlar davlat boshqaruvida ijobiy islohotlar olib borishga intilganlar. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayot va davlatning tashqi aloqalari masalalarida salohiyatli mansabdorlarning maslahatlari hukmdorlar uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Qo‘qon hukmdorlari huzuridagi kengashning faoliyati xususida, ya’ni unda qanday masalalar ko‘rilgan, degan savolga javob sifatida ham mahalliy muarrixlar asarlarida mavjud bir qancha ma’lumotlar tahlillariga suyangan holda quyidagi dalilini keltiriladi.

“Tarixi Turkiston” asarida shunday ma’lumot keltiriladi: (Olimxon) ko‘p ulamo va fuzalolardin o‘rdaga taklif aylab, majlisi xos barpo aylab, qo‘shin voqiyoti va dushman ahvolotini va ul dushmanning daf’i va Farg‘onaning osoyishtaligi va raiyaning besaranjom bo‘lmasligi va xifzi mamlakat xususidagi maslahatni botariqa iltimosi arz qilgan...[4].

NATIJALAR

Qo‘qon xonligidagi Oliy kengashning tarkibi haqida so‘z borar ekan, uning tarkibiga markaziy davlat boshqaruvidagi barcha mansabdorlar a’zo etib kiritilganligini alohida ta’kidlanadi. Qo‘qon xonligining bosh vaziri bo‘lgan mingboshi

[1] Худойқулов Т. Марказий Осиё давлатларининг бошқарув тарихи (марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият (XVIII – XX аср бошлари)). Монография. Ўзкитобсавдонашриёти. 2023. – Б. 76.
[2] Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент.: Янги аср авлоди. 2012. – Б. 365.
[3] Туркестанские ведомости. 1876. – № 13.
[4] Мирзо Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. Тошкент. – Янги аср авлоди. 2008. – Б. 54.

hamda oliy diniy mansabdor – shayx ul-islom kengashning doimiy a'zosi bo'lgan. Shuningdek, xonlikning bosh qozisi, ya'ni qozikalon va harbiy ishlar bo'yicha ikki sudya – qoziaskar ham kengashda ishtirok etgan. XIX asrning 30 - yillariga kelib markaziy davlat boshqaruvida muhim vazifalar qatoriga kirgan dasturxonchi va risolachi ham kengash a'zosi bo'lgan.

Xudoyorxon hukmronligining birinchi davrida Kengash tarkibi to'rtta qipchoqdan iborat bo'lgan. XIX asrning 60-yillariga kelib kengash kengaytirilib, markaziy davlat boshqaruvidagi 12 kishidan iborat mansabdorlar kengash tarkibiga kiritiladi.

Yangi xon hokimiyatga kelganida Kengash tarkibi o'zgargan. Kengash tarkibidagi biror a'zo biror viloyatga hokim etib tayinlanganida uning bo'sh qolgan o'rnini yuqori saroy amaldorlaridan bir egallagan. Dunyoviy amallarni bajaruvchi amaldorlar – umaro[5], diniy masalalarni hal qiluvchi amaldorlar esa – ulamo[6] deb atalgan.

Qo'qon xonligida davlatning boshqaruv tizimiga turli shaxslarni mansabdor etib tayinlash, ularning bu mansablarga tayinlanish vaqtida o'tkazilgan marosim va udumlar ham o'zbek davlatchiligining qadimiy an'analari bilan bog'liq. Davlat boshqaruvida muhim o'rin tutgan udumlardan biri oliy hukmdorni tayinlash, ya'ni xon ko'tarish[7] marosimi bo'lib, bu marosim o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Bu marosim aniq bir tartiblar asosida va doirasida amalga oshirilgan.

Qo'qon xonligida, boshqa Markaziy Osiyo xonliklaridagi kabi, hukmron doiradagi mansabdorlar ushbu marosimda yangi hukmdorga o'z itoatkorliklarini bildirib, bay'at qilishgan, so'ngra uni oq kigizga o'tqazib ko'tarishgan. Marosimdan so'ng yangi xon xalqqa e'lon qilingan[8].

Ushbu marosim haqida "Tarixi Turkiston"[9] asarida muhim ma'lumotlar mavjud. Asar muallifi Umarxonni (1810 – 1822) taxtga o'tkazish marosimi quyidagicha kechganini aytadi: Umarxonni o'zbek xonlari rasmicha oq namadga solib, qorilar Anna fattahna surasini o'qib, ko'tarib, Farg'ona taxtiga o'tqazib, tamomi jam bo'lgan haloyiqlar tahniyat va muborakbod ovozasini arshu a'log'a yetkurubdurlar[10].

MUHOKAMA

Hokimlar va hududiy bo'linma boshliqlari xon oilasi a'zolari, unga yaqin guruhlar, yuqori tabaqa vakillari va yetakchi qabilalar sardorlari orasidan tayinlangan. Jumladan, Xudoyorxon davrida yettita beklik xonning o'g'illari va yaqin qarindoshlari

[5] Мирзо Олим Мушриф. Ансоб ус – салотин ва таворихи ал-ҳавоқин//Мирзоолим Мушриф. Қўқон тарихи. Тошкент. Ғ.Ғулом. 1995. – Б. 68.
[6] Ўша асар.
[7] Ўша асар.
[8] Акбаров Р. Қўқони хонлиги тарихи. – Фарғона, 2015. – Б. 99-108.
[9] Мирзо Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. Тошкент. – Янги аср авлоди. 2008. – Б. 78.
[10] Ўша асар.

tomonidan boshqarilgan. O‘z navbatida hokimlar viloyat hududlarini o‘zining farzandlari va qarindoshlariga bo‘lib berganlar[11].

Ba’zi beklik yoki viloyatlar xon tomonidan kuchli davlat arboblari yoki mahalliy kuchlarning boshliqlariga ular bilan murosa qilish maqsadida berilgan. Jumladan, kuchli guruh vakili va qabila sardori sifatida Rajab qo‘shbegi, Muhammad Sharif otaliqning Toshkentga, yuzlar qabilasi vakillarining Xo‘jand va O‘ratepaga hokim etib tayinlanganligi buning dalilidir[12].

Xonlikning ma’muriy-hududiy boshqaruv tizimida bek (hokim, voliy) va uning o‘rdasi alohida o‘rin egallagan. Xon tomonidan tayinlangan hokim va qozi barcha vakolatlarga ega bo‘lgan. Lekin, ularning vakolatiga o‘lim jazosini berish kirmagan. Bek o‘rdasida ham xon saroyidagidek yuzlab amal va unvonlar joriy qilingan[13] bo‘lib, ular mahalliy aholidan yig‘iladigan soliq hamda to‘lovlar hisobidan kun kechirgan. Beklikda sarkor aholidan soliq va to‘lovlar yig‘ish, sug‘orish tizimi, hashar ishlariga mas’ul amaldor bo‘lgan[14].

Beklar xonning itoatkor vassallari bo‘lib, mamlakatni boshqarishda uni qo‘llab-quvvatlashlari, zarur bo‘lganda unga yordam berishlari, uning hurmat-izzatini joyiga qo‘yishlari, kerakli vaqtda o‘z qo‘shinlari bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishlari va sovg‘a-salomlar yuborib turishlari kerak bo‘lgan. Masalan, Xudoyorxonning ukasi Sulton Murodbek o‘z viloyati bo‘ylab qilgan o‘n oylik safari davomida unga 700 dan ortiq qo‘y tortiq qilingan. Hadyalar berganlar orasida biylar, hammom egalari, oqsoqollar, aminlar, sarkorlar, jarchiboshilar, eshikog‘alari, mirzoboshilar, qozilar, imomlar, mutavalliylar, xatiblar, qorilar, qo‘rboshilar, qorovulbegilar, to‘qsabolar, yuzboshilar, bahodirboshilar, shayx ul-islom va xo‘jakalonning farzandlari, ellikboshilar, raislar, to‘ralar, miroblar, tarxonlar, inoqlar, ponsodlar, miroxo‘rlar va boshqa zodagonlar bo‘lgan. Birgina Oyimchaxonning fotihasiga 259 bosh qo‘y to‘yona qilingan[15].

XULOSA

Shunday qilib, XVIII asr boshlarida asos solingan Qo‘qon xonligida davlat boshqaruvi o‘ziga xos xususiyatga ega edi. Umuman Qo‘qon xonligida davlat boshqaruvi rivojlanishini uch bosqichga bo‘lish mumkin: 1) 1709 –1800 yillar, bu davr xonlik davlat boshqaruvining shakllanishi davri; 2) 1800-1842-yillar, bu davrda xonlik davlat boshqaruvining shakllanish bosqichi yakunlandi va rivojlanishning yuqori nuqtasiga yetgan; 3) 1842 – 1876 yillar, bu davr markaziy hokimiyat bilan mahalliy

[11] Кун А. Некоторые сведения о Ферганской долине. // Туркестанский сборник. – Т. 117. – С. 169.
[12] Бейсембиев Т.К. Тарихи Шахрухи как исторический источник. Алма-Ата.: Наука, 1987. – С. 150 –152.
[13] Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Б. 6 – 21.
[14] НабиевР.Н. Из истории Кокандского ханства. (Феодальное хозяйство Худоярхана). – Ташкент. Издательство «Фан» Узбекской ССР. – С. 104.
[15] ЎзР ДА. 1043- фонд, 1-рўйхат, 2418-иш, 1 вар. Яна қаранг: Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – Москва: Наука, 1968. – С. 342 – 343.

hokimiyat o‘rtasida kurashning kuchayishi va xonlik davlat boshqaruvining inqirozga uchrashi davri hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida, Qo‘qon xonligi ham Buxoro amirligi va Xiva xonlgi kabi davlat tuzumiga ko‘ra, mutlaq monarxiya edi. Cheklanmagan huquqqa ega bo‘lagan xon davlatni hukmron minglar urug‘i, shuningdek, boshqa qabilalarning nufuzli tabaqalari, yuqori mansablarga tayinlangan davlat amaldorlari, ruhoniylar va harbiylarga tayanib boshqargan. Buxoro amirligidan farqli o‘laroq, Qo‘qon xonligida harbiy lavozim egalarining, ayniqsa qo‘shin Bosh qo‘mondoni – mingboshining nufuzi nihoyatda yuqori bo‘lgan. Mingboshi nafaqat qo‘shinning Bosh qo‘mondoni, ayni paytda, Bosh vazir ham hisoblangan. Butun ijro etuvchi hokimiyat uning qo‘lida to‘plangan. Qo‘qon xonligida davlat boshqaruvining o‘ziga xos bir xususiyati shunda ediki, markaziy hokimiyat mamlakatda barqarorlikni saqlash uchun o‘troq va ko‘chmanchi turli urug‘ va qabilalar o‘rtasida manfaatlar muvozanatini hisobga olishga majbur edi. Umarxon va Muhammad Alixon bu omilni eng ko‘p darajada hisobga olgan hukmdorlar edi. Xonlik hayotining yana bir o‘ziga xos jihati – bu davlat ishlariga ruhoniylarning ta’siri Buxoro amirligidagidek sezilarli darajada bo‘lmaganligi edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Худойқулов Т. Марказий Осиё давлатларининг бошқарув тарихи (марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият (XVIII – XX аср бошлари)). Монография. Ўзкитобсавдонашриёти. 2023. – Б. 76.
2. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент.: Янги аср авлоди. 2012. – Б. 365.
3. Туркестанские ведомости. 1876. – № 13.
4. Мирзо Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. Тошкент. – Янги аср авлоди. 2008. – Б. 54.
5. Мирзо Олим Мушриф. Ансоб ус – салотин ва таворихи ал-ҳавоқин//Мирзоолим Мушриф. Қўқон тарихи. 6..Тошкент. Ғ.Ғулом. 1995. – Б. 68.
7. Ўша асар.
8. Ўша асар.
9. Акбаров Р. Қўқони хонлиги тарихи. – Фарғона, 2015. – Б. 99-108.
10. Мирзо Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. Тошкент. – Янги аср авлоди. 2008. – Б. 78.
11. Ўша асар.
12. Кун А. Некоторые сведения о Ферганской долине. // Туркестанский сборник. – Т. 117. – С. 169.
13. Бейсембиев Т.К. Тарихи Шахрухи как исторический источник. Алма-Ата.: Наука, 1987. – С. 150 –152.

14. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Б. 6 – 21.
15. НабиевР.Н. Из истории Кокандского ханства.
(Феодальное хозяйство Худоярхана).
16. НабиевР.Н. Из истории Кокандского ханства.
Феодальное хозяйство Худоярхана). – Ташкент.
Издательство «Фан» Узбекской ССР. – С. 104.
17. ЎзР ДА. 1043- фонд, 1-рўйхат, 2418-иш, 1 вар. Яна қаранг: Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – Москва: Наука, 1968. – С. 342 – 343.

